

TARIX DARSALARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Turgunboyeva Moxigul Davronboyevna

*Toshkent viloyati Angren shahar 40-umumiy
o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi*

Anatatsiya: Mazkur maqolada Tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, Tarix fanini o'qitishda qo'llaniladigan texnologiyalarga tarixiylik, qiyosiylik tamoyillari nuqtai nazaridan baho berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, tarix fani, maktab, o'quvchi, metodika, metodologiya.

Har bir davlatning kelajagi va uning ravnaqi dastavval ilm-fan taraqqiyoti hamda ta'lism-tarbiyaning rivojlanishi va takomillashishi bilan belgilanadi. Shu bois O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ilm-fan, ta'lism-tarbiya va kasbhunar o'rgatish hamda sifatli kadrlar tayyorlash masalalariga davlatimiz siyosatining ustivor yo'naliishilaridan biri sifatida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, har bir ta'lism oluvchilarda chuqur va mustahkam bilim, teran fikr, yuksak ma'naviyat va madaniyat, ijodkorlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni tarkib toptirishga e'tibor kuchaydi.

Shuning uchun ham, ta'lism muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari hisoblangan interfaol uslublar, ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida qo'llay bilish - dars jarayonidagi pedagogik mahoratni, bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarini tashkil etishi va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotini jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Shu o'rinda tarix fanini o'qitishda ham ilg'or xorijiy tajribalardan biri bo'lgan o'yinli texnologiyalardan foydalanish va undan kutiladigan natija ham bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda mazkur fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Ma'lumki, o'yin turli ta'limiylar maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular o'quv, aqliy, tarbiyaviy va faoliyatni rivojlantiruvchi maqsadlarda qo'llaniladi. Uning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar,

dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlik, jamoaga kirishib keta olishni rivojlantirishda ko‘rinadi. Ta’lim jarayonida foydalilaniladigan o‘yinlar, albatta, darsda hal qilinadigan aniq o‘quv tarbiyaviy vazifalarga moslanishi kerak. Shuning uchun ham o‘yin avvaldan rejalshtiriladi, uning dars tuzilmasidagi o‘rni mukammal o‘ylab chiqiladi, o‘tkazish shakli belgilab, olinadi va shu asosda ular tayyorланади. O‘yin o‘tkazilish shakllari va usullari bilan ta’limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Tarix o‘qitish jarayoniga aynan mos keluvchi aqliy va intelektual o‘yinlar dars usullarini cheksiz takrorlash va o‘zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkonini beradi. Natijada o‘yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo‘lishiga hamda uning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini yaratiladi. Aqliy o‘yinlar o‘qitish sifatiga va mavzuni qiziqarli, tushunarli bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘quvchilar g‘olib chiqish maqsadida berilgan har bir topshiriqlarni astoydil bajaradilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish ortib boradi. Aqliy o‘yinlar darsning maqsadi va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Tarix o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi aloqalar Tarix o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o‘qitishning metod va usullari, natijalari) o‘rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon bo‘ladi: o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida maqsadi, ta’lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o‘qitishning mazmuniga, g‘oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo‘lishiga bog’liq bo‘lganidek, o‘quvchilarning tarix kursini o‘zlashtirish darajasi ham o‘z navbatida o‘qitishning o‘rganiladigan mavzuning maqsadi, ta’limtarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta’lim shakllari, o‘qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog’liqdir. Shuningdek, o‘qitishning natijalari ham o‘qituvchining o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadni, uning ta’lim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishiga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishiga bog’liqdir. Tarix o‘qitish jarayoning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bu o‘zaro dialektik bog’lanish natijasida ular bir-biriga o‘zluksiz ta’sir ko‘rsatib boradi. Tarix o‘qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e’tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo‘lmaydi.

Ta’limni muayyan pedagogik maqsadga yo’naltirmoq uchun o‘qituvchi o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix o‘qitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan ta’lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishi kerak. Shu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda har bir sinfda o‘qitiladgan tarix kursining o‘rni, vazifalari, o‘z navbatida mazkur kursni o‘qitishning ta’lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo‘limi, bo‘limdagi mavzular, xatto har bir darsda o‘tiladigan mavzuning ham juz’iy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. Chunki har bir tarix darsining butun tarix kursining umumiy darslar sistemasida tutgan o‘rni bor, bu darsda

o'rta ta'lism va o'rta maxsus ta'lism tizimida tarix o'qitish oldiga qo'yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi yoki bo'lagi xal etiladi. Tarix o'qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta'lism va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy saviyasi mutassil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak. Ta'lidan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshmog'i uchun, ular ilmiy asosda belgilanmog'i lozim. Bu maqsadlar tarix ta'limining mazmuni va vazifalari bilan belgilanadi. Shuningdek, bunda ta'limning boshqa shartsharoitlari: o'quvchilarning saviyasi, bilimi, ko'nikmalari va malakalari, dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o'tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta'lim maqsadlarining ilmiy asosda belgilanishi ularning realligini ta'minlaydi. Ta'lidan ko'zlangan maqsadlarni o'qituvchi naqadar chuqrur anglab olgan bo'lsa, tarix o'qitish mazmunan shunchalik g'oyaviy va tarbiyaviy natija beradi.

Tarix fanini o'qitish esa, quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi:

-ajdodlarimizning ma'nnaviy merosi va jasoratlaridan ibrat olishga, ularga munosib voris bo'lishga o'rgatish;

-o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo'naltirish orqali ularning o'zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat.

Mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlikka, ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va amaliy jihatdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorligi esa mazkur soha bo'yicha ijobiy yangilik kiritish bilan belgilanadi. Bunday yangiliklarni kiritish jarayoni innovatsion jarayon bo'lib, u ilg'or pedagogik texnologiyani joriy qilib, ta'limda sifat va samaradorlikka erishishdan iborat bo'ladi, chunki ta'limda innovatsion uslublarni qo'llash ijobiy sifat o'zgarishlarni va yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Buning uchun har bir o'qituvchi yangicha fikrashi, tafakkurini o'stirish, pedagogik texnologiyalarni o'rganishi, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini chuqrur bilib olish kerak. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini pedagogik amaliyotga tatbiq etish uchun o'qituvchiga quyidagi komponentlar-bilim, ko'nikma va malakalar zarur bo'ladi:

- O'z fanining asoslarini chuqrur egallagan, ilmiy salohiyat va ma'nnaviy barkamollikka ega bo'lishi;

- O'z fanining ilg'or targ'ibotchisi, fidoysi bo'lishi;

- Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashirish, o'zlari ham yangicha o'qitish uslublarini ishlab chiqishi;

- O'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish;

- Ta'lim texnologiyalari va ularning rivojlanish tarixi haqida tushunchalarga ega bo'lish va shunga o'xshash ko'nikma va malakalar kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi yoshlarni avvalo, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun dars jarayonida butun rahbarlikni o'z qo'liga olib, mavzu mohiyatini to'liq tushuntirgan o'qituvchi emas, balki o'quvchilariga ishlash uchun sharoit va erkinlik yaratishga erishgan, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatgan o'qituvchigina chin ma'nodagi pedagog va tarbiyachidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'rzasidan.-T.: 2017
2. Sh. Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T. 2016
3. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T.:2008
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Ta'lim Standartlari . T.: 2017
5. R. Mavlonova, O. To'rayeva "Pedagogika". T.: 2001 6. R. M. Sobirova "O'quvchi ijodiy faoliyatini faollashtirish nazariyasi va amaliyoti". T.: 2013
7. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar"-T.:2017
8. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova "O'zbekiston tarixi"-T.:2006